



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



MAKEDONYALIK ALEKSANDRNING O`RTA OSIYOGA YURISHLARI.

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Aleksandr Makedoniyalikning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari, mahalliy aholi bilan kurashlari, Spitamenning qarshiliklari hamda Aleksandr tomonidan qurdirilgan shaharlar haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, Bess, Aleksandr Makedoniyalik, Sug'diyona, Baqtriya, Spitamen, Oks.*

Qudratli Ahamoniylar davlatining asosiy qismlarini qiyinchiliksiz egallagan yunonlar O'rta Osiyoga ham bostirib kirdilar, ammo bu hududlarda qattiq qarshilikka uchradilar. Aleksandr uch yil umrini bu yerlarni egallash, Spitameni yengish va mahalliy aholi qarshiligini sindirish uchun sarfladi. U qiynalganidan turli hiylalardan foydalandi. Jumladan, mahalliy zodagonlarga kuyov bo'lib tushdi va bir qancha shaharlarga asos soldi.

Aleksandr Makedoniyalik Ahamoniylarning so'nggi hukmdori bo'lgan Doro III qo'shinlarini yengib, hududlarni bosqichma-bosqich egallay boshladi. Doro esa mamlakatning sharqiy hududlariga qochdi. Ammo Ahamoniylar sulolasiga mansub bo'lgan Bess Doroni xoinlarcha o'ldirdi. Bess Baqtriya satrapi edi.

Aleksandr ketma-ket Girkaniya va Parfiya viloyatlarini bosib olib, Ariyaga yaqinlashgach, uning noibi Satibarzan hali urushga tayyor emasligi bois Aleksandrda taslim bo'ladi. Makedoniyalik bosqinchi uni noib lavozimida qoldirib, o'zi Boxtarga jo'naydi. Fursatni g'animat topgan Satibarzan Artakoanada qoldirilgan makedoniyalik askarlarni qirib tashlaydi va Bess bilan birlashish taraddudiga tushadi. Ushbu vaziyatda Aleksandr sharq tomon yurishini to'xtatib, qo'zg'olonni bostirish uchun orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Ariyaliklarning 3000 qo'shinini qurshab olib, ularning bir qismini qirib tashlab, qolganini qul qiladi. Ariya va unga tutash hududlardagi isyonlarni bostirgan Aleksandr uchun nihoyat Boxtar o'lkasi bilan rosmansa shug'ullanish imkoni tug'iladi. Bundan xabar topgan Bess Aleksandr qo'shinini ikkiga bo'lish maqsadida Satibarzanni 2000 otliq bilan Ariyaga jo'natadi. Shu tariqa ariyaliklar yana yunon-makedonlarga qarshi bosh ko'taradilar. Qo'zg'olonni bostirish uchun kichik qo'shin yuborgan Aleksandr sovuq kunlarga qaramay, asosiy qo'shini bilan Hindukush tog'laridan o'tib, Drapsak qal'asini egallaydi. Harbiy kuchi Aleksandrnikiga qaraganda ikki marta kam (7000 va 14 000) bo'lgan Bess ochiq maydonda jang qilishga jur'at etolmay, Amudaryodan o'tib, Sug'dga chekinishga majbur bo'ladi. Buni ko'rgan boxtarlik askarlar Bessni tashlab, uy-uylariga tarqab ketadilar. Negaki, Bess ham





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Boxtar o‘lkasi ahli uchun aslida begona edi. Natijada Aleksandr miloddan avvalgi 329 -yil bahorida katta qarshiliksiz avval Aorn qo‘rg‘onini, so‘ngra Boxtar shahrini egallaydi.

Bessning Aleksandrga qarshi kurashlari deyarli hech qanday ijobiy natija bermagan bo‘lsa-da, bu Turon yerlari bosib olinishi jarayonini yarim yilga kechiktirdi. Qolaversa, ahamoniylar qo‘shini tarkibida bo‘lgan turonliklar yunon-makedonlar qurol-yarog‘i va hujum usullari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu esa keyinchalik Sug‘dda bo‘lgan janglarda ularga qo‘l keladi.[1, B. 72-73].

Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang‘iyona,

Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo‘ylariga chiqib keladi. Arrian va Kurtsiy ma‘lumotlariga ko‘ra bu paytda daryo juda sersuv bo‘lib, to‘lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelifatroflari, CHushqago‘zar, Termez atroflari va SHO‘rob deb hisoblaydilar. Nima bo‘lganda ham, Aleksandr qo‘shinlari qoplarga somon-xashak to‘ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan

kechib o‘tganligi haqida yozma manbalarda ma‘lumotlar saqlangan. Aleksandr qo‘shinlari daryodan o‘tgach Bessni ta‘qib etib “Sug‘d viloyati Navtakaga” yo‘l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg‘or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug‘d yerlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to‘xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar.[2, B. 74-75].

Aleksandr boshchiligidagi qo‘shinining asosiy qismi Ptolemeyning izidan borardi. Uning yo‘lida Kichik Osiyodagi Milet shahri yaqinida joylashgan Didim shahridan kelgan Apollon ibodatxonasi kohinlari — branxidlar shahri bor edi. Ular ahamoniylar shohi Kserks (mil. avv. 481–465) tomonidan unga ibodatxona xazinalarini berganliklari uchun ellinlarning o‘ch olishlaridan qo‘rqib, O‘rta Osiyoga ko‘chirilgan edi. Shuning uchun branxidlar mil. avv. V asrda O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘i — Transsoksianaga kelib qolgan ilk yunonlar bo‘lgan.

Branxidlar shahri Qarshi shahridan 10 km shimolda, Qashqadaryo viloyati markazi bo‘lgan Yerqo‘rg‘onda joylashgan bo‘lishi mumkin. Branxidlarning xiyonati uchun Aleksandr shaharni butunlay vayron qiladi. So‘ngra Ptolemey armiyasi bilan birlashish maqsadida ular tomon harakatlanadi. Ptolemey esa, o‘z navbatida, asirga tushgan Bessni unga topshiradi. Keyinchalik Bess Ekbatanaga yuborilib, u yerda shafqatsizlarcha qatl qilinadi. Shundan so‘ng Aleksandr butun armiyasi bilan Nautakadan Maroqand (Samarqand)ga — O‘rta Osiyoda o‘sha davrning eng katta shahriga yuradi.[4, B. 140].

Aleksandr mil. avv 329 - yilda Maroqandani egalladi. Bu yerda u harbiy garnizon va atrof joylardagi qishloqlarni yondiradi. So‘ngra u harbiy yurishni davom ettirib, Samarqand bilan Xo‘jand oralig‘idagi Ustrushonaga kelganda vatan himoyachilari bilan to‘qnashadi. Bu yerda shunday qattiq jang bo‘ladiki, 30 ming kishilik vatan himoyachilaridan 22 mingtasi halok bo‘ladi. Hatto bu jangda Aleksandrning o‘zi ham jarohatlanadi. U ustrushonaliklarni vahshiylarcha bo‘ysundirganidan keyin Sirdaryo bo‘ylab yurishni davom ettiradi. Bu yerda joylashgan yettita shaharning aholisi Aleksandrga qarshi bosh ko‘tarib, mustaqillik uchun kurashadilar. Ayniqsa, Kiropol shahrida vatan himoyachilari bilan bosqinchilar o‘rtasida



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qattiq jang bo‘lib, tub aholidan 8 ming kishi halok bo‘ladi. Ko‘p kishilar yaralanadi. Dushman askarlari ham katta talafot ko‘radi, lekin ular g‘alabaga erishadilar. Bu yerda ham Aleksandr jarohatlangan edi. U bundan g‘azabga to‘lib-toshib, aholining ko‘p qismini qirib tashlaydi. [5, B. 18].

Bunday dahshatli voqealar Spitamenga saboq bo‘ldi. U endi Aleksandrning haqiqiy basharasini ko‘radi va unga qarshi muqaddas kurashga otlanadi. Aleksandr jang bilan tog‘liklarni qirib, Sirdaryo bo‘ylariga chiqib oladi. Bu yerda Aleksandrni do‘stlarcha sovg‘a-salomlar bilan Tanais (Sirdaryo)ning narigi tomonidan qaytardaryolik saklar kutib oladi. Aleksandr sak elchilarini garovda qoldirib, o‘z odamlaridan bir kishini Tanais ortidagi saklar yurtiga ayg‘oqchilik maqsadida yuboradi. Xuddi shu paytda Aleksandrga Samarqanddan chopar kelib, Spitamen boshchiligida shaharda unga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilganligi haqida xabar beradi. Spitamen Samarqandni egallab, Aleksandrning u yerda qoldirilgan Farnux qo‘mondonligidagi 3000 piyoda va 800 otliq qo‘shinini qirib tashlaydi. Aleksandr zudlik bilan Samarqandga yo‘l oladi. Aleksandr ketishi bilan Xo‘jand qal‘asida garovga qoldirilgan saklar bosh ko‘taradilar va yunon qo‘shinlarini qirib tashlaydilar.

Miloddan avvalgi 328-yilda Aleksandr Spitamen boshchiligida Samarqandda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostiradi va shaharni ikkinchi marta egallaydi. Diodor bergan ma‘lumotlarga qaraganda: “Aleksandr qo‘zg‘olon ko‘targan sug‘diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yubordi”. Uning ikkinchi bosqichida “u baqtriyaliklarga jazo berib, sug‘diylarni qaytadan o‘ziga bo‘ysundirdi va joylarda qal‘alar barpo etdi”. Qo‘zg‘olonning uchinchi bosqichida esa “qo‘zg‘olon ko‘targan sug‘diylarning tog‘larga qochib yashiringanlari asirlikka olindi”. Ana shu davrdan e‘tiboran Aleksandr uchun Spitamen eng asosiy va dahshatli raqibga aylandi. [3, B. 51].

Sug‘diyoning tog‘li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo‘zg‘olonchilar yashirib olgan edilar. Sug‘diyoning deyarli barcha aholisi Spitamen tomonida bo‘lib, uning g‘alabalariga katta umid bog‘lagan edilar. Aleksandr esa mil. avv. 329–328-yillar qishlovini Baqtriyada (ba‘zi manbalarda Nautakada deyiladi) o‘tkazar ekan, vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to‘xtatildi (bunga Farasmanning “daryo ortidagi saklar davlati” hujumidan xavfsirashi hamda Aleksandrning yurishlarini to‘xtatish harakatlari sabab qilib ko‘rsatiladi).

Miloddan avvalgi 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal‘alar va tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming qo‘shinini 5 guruhga bo‘lib, bu guruhlariga ishonchli sarkardalar — Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi. Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko‘pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari esa tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o‘rinda Spitamanning jasorati haqida to‘xtalish joizdir. U doimo raqiblarning zaif joylarini izlar va ularga aynan o‘sha joylardan zarbalar berar edi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Spitamena sug'diy va baqtriyalik zodagonlar hamda saklar bilan ittifoqda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha, mil. avv. 328-yilning oxirida Spitamen o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitamen tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni ona yurtidan haydab chiqarish uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirlarni ko'rdi, choralarni unumli qo'llashga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib, dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga intilardi. Ammo Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatidan Spitamendan ustun edi. [6, B. 125-126].

Aleksandrning baqtriyalik zodagon Oksiart Vaxshuvorning qizi Roksanaga uylanishi, shuningdek, sarkadalarining sug'dlik va baqtriyalik go'zallarga uylantirdi. Aleksandr va Roksanani nikohidan tug'ilgan o'g'il Aleksandr IV shu bois yarim baqtriyalik edi. Yaqin va O'rta Sharqda ikki yuz yildan ko'proq hukmronlik qilgan barcha salavkiy hukmdorlarning tomirlarida sug'dlar qoni oqgan. Salavkiylar davlatining asoschisi Salavk I (mil. avv. 312-311-281)ning sug'dlar qabilasi boshlig'i Spitamenning qizi, Antiox I (mil. avv. 280-261)ning onasi Apama bilan nikohi mil. avv. 324-yilda Aleksandr tirikligida Suzada tuzilgan. Apama eri va o'g'lining chuqur hurmatiga sazovor bo'lgan. Uning sharafiga Suriya va Eron hududida Apameya nomli shaharlar bunyod etilgan. [4, B. 138-139].

Xulosa qilib aytganda, Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari nihoyatda murakkab va qattiq qarshiliklarga boy bo'lgan. Mahalliy xalqlar, ayniqsa Spitamen boshchiligidagi kuchlar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Garchi Aleksandr harbiy jihatdan ustunlikka ega bo'lib, ko'plab qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostirgan bo'lsa-da, bu yurishlar unga katta talafotlar va uzoq davom etgan qarshiliklarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, bu davr nafaqat harbiy to'qnashuvlar, balki madaniy va siyosiy yaqinlashuvlar davri ham bo'ldi. Aleksandrning mahalliy zodagonlar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatishi, xususan Roksanaga uylanishi va sarkadalarining ham mahalliy ayollar bilan turmush qurishi Sharq va G'arb o'rtasida ma'lum darajada uyg'unlashuv jarayonini yuzaga keltirdi. Umuman olganda, bu voqealar O'rta Osiyo tarixida muhim o'rin tutib, keyingi siyosiy va madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Asqarov, A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – 456 b.
2. Eshov, B. O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012. – 426 b.
3. Shamsutdinov, R.; Karimov, Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
4. Алимова Д.А., Ртвеладзе Э.В. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. — Тошкент: Akademnashr, 2021. — 552 б.
5. Зиёев, Хамид. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). — Тошкент: Шарқ, 2001. — 486 б.
6. Эшов, Б.Ж.; Одилов, А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Тошкент, 2014. – 489 б.

